

ISSN: 2545-0573

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA "OVQAT" SEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

**Vaxobova Dilnavo Farxod-qizi**

*Farg'ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti*

**Mirzayeva Dilshoda**

*Ilmiy rahbar*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:**

Sema, lingvokulturologiya, mentalitet, qadriyat, omil.

### Annotatsiya

Maqollar xalq o'g'zaki ijodining eng ahamiyatli va tarixiy janrlaridan biri bo'lib, unda xalqning o'tmishi, madaniy merosi va qadriyatlari aks etadi. Bugungi kunda maqollar ustida tilshunoslikda chuqur izlanishlar olib borilyapti va bunday izlanishlar natijasida tilshunoslikning yangi qirralari ochib kelinyapti. Ushbu maqolamiz o'zbek va ingliz maqollarini qiyosiy o'rganish asnosida har ikkala xalqning madaniy va milliy odatlarini tilga qay daraja aks etganini ifodalab, xalqlarning milliy mentalitetidagi o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini isbotlab berishga qaratilgan. Mazkur masalani o'rganish uchun biz ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi, aynan, "ovqat" semasi bilan bog'liq maqollarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qildik.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

### KIRISH

Avvalambor, Lingvokulturologiya o'zi nima degan savolga yuzlanadigan bo'lsak, Lingvokulturologiya bu tilshunoslikning alohida soxasi hisoblanadi. Bugungi kunda, tilshunoslikda kishilar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy-siyosiy, ma'daniy kommunikativ jarayonlar, tillarning o'zaro munosabati va til ma'daniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator masalalar yuzaga kelmoqda. Bu esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'rtasida alohida o'z yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

### ASOSIY QISM

Bilamizki, til har bir xalqning ma'naviyatini, qadriyatini va o'ziga xos jihatlarini ifodalashda muhim omil sanaladi. Ko'plab olimlar Henl P. (1958), Sepir E. (1958), G.G Morian (1986), Kramsh C. (1993) madaniyat va tilning bo'g'liqligi kabi masalalarga o'z ishlarida to'xtalib o'tganlar. Maqollarning lingvokulturologik sifatlariga to'xtalgan holda olimlardan Nida quyidagilarni bayon etadi:

“one of the most challenging aspects of investigating proverbs of a language is the fact that, being considered as one of the best examples of cultural-linguistic interaction, its categories and identified units are continuously changing, so as culture and language are. This is due to the fact that, contrary to folk or intuitive conceptions, language does not lie in dictionaries nor in grammars, but it only exists in the people’s minds. [ 75;55-75]

Nida maqollarni o’rganishda bevosita tilni va o’sha xalqning madaniyatini o’rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo’lgan leksema o’sha xalqning turmush tarzidan ya’ni xalq tilidan kelib chiqqan bo’lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi. Haqiqatdan ham Til va ma’daniyat bir-biriga bog’liq ravishda rivojlanadi. U maqollarni o’rganishda bevosita tilni va o’sha xalqning madaniyatini o’rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo’lgan sistema o’sha xalqning turmush tarzidan ya’ni xalq tilidan kelib chiqqan bo’lib, bu bevosita maqollarda aks etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati ochi beriladi. [1]

Aslida tadqiqot ishimizning asosiy qismidan biri bo’lmish ingliz va o’zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlarini ko’rib chiqib, ularning o’xshash va farqli jihatlari solishtirish eng muhim bosqichlardan biridir. Shu sababli yuqorida keltirilgan nazariyalariga asoslangan holda bir qancha o’zbek va ingliz tilidagi "ovqat" semasiga doir maqollarini chuqur tahlil qilib chiqdik. Ularda xalq turmush tarzi qay darajada ifodalanganligini misollar bilan keltirishga va ikki tilda mavjud bo’lgan maqollarning solishtirma tahlili orqali o’zaro o’xshash va farqli tomonlarini ko’rsatishga xarakter qildik.

## MUHOKAMA

Biz boshqa tillardagi maqollarni o’z ona tilimizga solishtirib tahlil qilganimizda o’zaro o’xshashliklar va sezilarli farqlarni ko’rishimiz mumkin. Bunda , albatta, xalqlar o’rtasidagi madaniy va ijtimoiy jihatlar muhim o’rin tutadi.

Quyida bir qator ingliz va o’zbek maqollarini tahlil qilamiz:

"Forbidden is the sweetest"- "Qo’shnining tovug’i g’oz ko’rinar, kelinchagi-qiz"

"The rotten apple injures it's neighbour's"- "Bitta tirroqi buzoq podani bulg’aydi"

"The sauce is better than the fish"- " O’zi bir tanga, to’ni ming tanga"

"He must have a long spoon that sups with the devil". Inglizcha varianti: Shayton bilan ovqatlangani o’tirsang uzunroq qoshiq ol. O’zbekcha varianti: Yomondan to’n kiysang, to’yda to’nim ber deydi.

O’xshash jihati shundaki, o’zbek va ingliz tillaridagi shayton va do’zzax so’zlari ishlatilgan maqollar ko’p hollarda salbiy ma’noni anglatadi va bu jihatlari bilan o’zbek va ingliz xalqining diniy qarashlaridagi ayrim tushunchalar tilda bir xil holatda tushuniladi va ishlatiladi.

## XULOSA

Demak, o’zbek va ingliz xalq maqollarida mavzu jihatidan bir-biriga o’xshash maqollarning ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmag, u har ikkala tilda o’z muqobil variantiga egadir. Buning asosiy sababi shuki, barcha insoniyatga xos xislatlar hamma millatga xosligidadir. Biroq biz bu fikrlarimiz bilan o’zbek va ingliz tillaridagi maqollar aynan bir xil qo’llanilish o’rniga ega degan fikrni keltirolmaymiz. Shunchaki biz ingliz va o’zbek maqollarida uchraydigan mavzularning har ikki tildagi maqollarda mavjud yoki mavjud emasligini aniqlab olmoqchimiz xolos. Shu o’rinda maqollarni alohida tahlil qilsak, ulardagi ma’no-mazmun barchasida ham bir xil emasligini ko’rishimiz mumkin. Muhimi ingliz tilidagi ma’lum bir mavzudagi maqollar o’zbek tilida ham uchrashi yoki aksincha o’zbek tilidagi ma’lum bir mavzudagi maqollar ingliz tilida ham uchrashi mumkin ekanligini isbotladik. Demak, ingliz va o’zbek maqollari ustida mavzu jihatidan olib borgan tadqiqotimizga ko’ra, o’zbek maqollarida uchraydigan barcha mavzularning ingliz tilidagi maqollarda ham uchratishimiz mumkin degan xulosaga keldik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Филицына В.П. О пословицах и поговорках как материале фразеологического словаря. В кн.: Проблемы фразеологии. – М – Л.,1964. – 78 ст.
2. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Т.: Mehnat, –2000. –398 b.
3. Камбарова З.А. Актуализация фразеологических единиц в языкеанглийской газеты. – М.,1977; -166 ст.
4. Mamatov A.E.Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazalodik norma muammolari. – Toshkent: 1991. – 274 b.
5. “O’zbek xalq maqollari” T.Mirzayev,A. Musaqulov. Toshkent(2005)
6. J.Raymond “Naprijonnost v poslovitsah” Zapadniy folklor. 1956
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Proverb>
8. Makhmatkulov, K., Gaziyeva, S., & Ashirova, M. (2020). LANGUAGE INTERFERENCE IN UZBEK AND ENGLISH. nternational Journal for Innovative Engineering and Management Research A Peer Reviewed Open Access International Journal, 09(09), 198-201
9. Usmonova, G. (2020). Borrowings of English vocabulary and their distinctive features. Экономика и социум, 72(5), 98-100.
10. Shohimardonova, M. O. (2020). the role of polysemantic verbs in the English and Uzbek languages. Amaliy lingvistika va adabiyotshunoslik muammolari, 1(2), 208-211.